

SAMAR BONU AND ITS LITERARY HERITAGE

Toshquvatova Mashhura Aktam qizi

SamSU Student

ANNOTATION

This article is dedicated to the life and work of Samar Bonu, a 19th century poet. The article provides information about the genealogy of Samar Bonu, the lineage of the poet Huvaydo, and his way of life. The theme of the poet's work is also analyzed, and his poems on the theme of love are directly related to his way of life and biography.

Keywords: family tree, devon, customs, freedom, poetry.

INTRODUCTION

Musulmon davlatlarida qadimdan ko'plab qalami o'tkir shoirlar yetishib chiqqan. Ammo ularning ayol kishi bo'lganliklari sababli ham bilim olishlari, ijod qilishlariga doim to'sqinlik bo'lgan. Hatto o'z taqdirini hal qilish erkidan ham mahrum bo'lishgandir. O'z taqdiri uchun kurashgan va hayotining oxirigacha ijod qilishdan to'xtamagan Samar bonu ijodiga nazar tashlar ekanmiz, shoiradagi shijoat va matonatga qoyil qolmaslikning iloji yo'q.

XIX asrda Farg'onada bir qancha o'zbek shoirlar o'zlarining badiiy salohiyati bilan ajralib turgan. Bu davrda Uvaysiy, Nodira, Mahzuna va Samar Bonu kabi zabardast shoirlar yetishib chiqqan. Bu kabi shoirlarning aql-zakovati qanchalik yuqori bo'lmasin, ular qoldirgan adabiy meroslarning bir qismigina bizgacha yetib kelgan. Shular jumlasidan ko'plar uchun notanish bo'lgan Samar Bonuning hayot va ijod yo'liga nazar tashlar ekanmiz, shoiraning badiiy mahoratiga tan bermay ilojimiz yo'q. Bonuning hayot yo'li va adabiy merosi bilan birinchi bor o'zbek adiblaridan To'xtasin Jalolov shug'ullangan. Keyinchalik shoiraning hayot yo'lini chuqurroq o'rganish, asarlarini izlab topish va nashr ettirishga harakat qilgan va buni uddalagan. To'xtasin Jalolov "Samar Bonu" risolasida shoira haqidagi ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Samar bonu va uning ukasi Salohiddin Sohibga o'sha paytgacha Huvaydoning nevaralari deb qaralgan. Keyinchalik izlanishlar natijasida Bonuning shajarasi to'liq o'rganib chiqildi. Bu haqda Huvaydoning chevarasi Salohiddin Sohib "Huvaydo" devonining xotimasida o'z shajaralari haqida quidagicha ma'lumot bergan:

Bul kitobi xudo Huvaydoni,
O'g'lidur O'sh shahri eshoni,
Turbati xalqqa ziyoratgoh,
Sarmazor oni der Ibodulloh,
Xolmuhammad xalifa qutbi zamon,
Oning o'g'li Sirojiddin eshon,
Ba laqabi she'rida Sirojiydur,
Shuarolarning she'ri tojidur.
Sohibi xastadil Salohiddin

Valadi Mavlaviy Sirojiddin Bu misralardan shu narsa ayon bo'ladiki, Huvaydoning yagona o'g'li Xolmuhammad xalifa bo'lib, otasining vafotidan so'ng O'shda eshonlik qilgan. Huvaydoning o'g'li deb qaralgan Sirojiddin eshon esa Xolmuhammad eshonning o'g'li bo'lib, Huvaydoning

nevarasidir. Bu she'rdagi shoir o'z ijodini maqtab, - "shoirlarning she'ri toji", - deb ataydi. Bundan tashqari, otasi Mavlaviy Sirojiddin ekanligini ta'kidlab o'tgan.

Shu tariqa, Sirojiddin eshon, ya'ni shoir Mavlaviy Sirojiyning farzandlari: Samar Bonu, Salohiddin Sohib va Amonjon Maqsum Huvaydoning nevaralari emas, chevaralari bo'lib chiqadi. Shoira Samar bonu 1837-yilda tug'ilib, 1891-yilda vafot etgan. Otasi Shoir Sirojiy xonadoni o'z davridagi kuchli bir adabiy-falsafiy oqimning markazi bo'lib, bu oilani o'ziga xos bir dorilfunun deb atash mumkin edi. Shoira mana shunday ziyoli oilada voyaga yetgan va bilim olgan. Bonuning onasi oqila, fozila ayol bo'lgan, hamma farzandlari dastlab onalaridan ta'lim olib savod chiqarganlar. Falsafa va she'r yozish ilmini shoira otasidan o'rganadi va otasining iste'dodli shogirdlaridan biri bo'lib yetishadi.

Tarixdan ma'lumki, musulmon ayollari jamiyat faoliyatiga qatnashish huquqiga ega bo'lmagan. Hatto, ular o'z dard-u hasratini birovga ayta olmas, aytganda ham hech kim eshitmas edi. Bu haqda Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonida ham aytib o'tgan:

Sen tortibon ohi otasholud ,

Men o't yoqibon chiqarmayin dud.

O'sha paytlari ko'pchilik Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Tohir va Zuhra dostonlarini o'qib ta'sirlanganlar. Lekin o'z qizlari Shirin, Layli va Zuhro vaziyatiga tushib qolsa, ular farzandlariga nisbatan shafqatsiz bo'lgan. Bu kabi holatlar haqida shoiraning "Ishqsizlardan shikoyat" she'rida quyidagicha bayon etilgan:

Ishqi yo'qni joni yo'q, imoni yo'q,

Ey birodar, bo'lmang andin ko'ngli to'q!

Ishqi yo'q odamga bo'lmanglar yaqin,

So'zladi bu so'zni "Maslak muttaqin".

Izoh: Ey birodar ishqi yo'qni joni va imoni bo'lmaydi, unday insonga ishonib ham bo'lmaydi. Ishqi yo'q odamga yaqin bo'lmanglar, bu so'zni "Maslak muttaqin" aytdi.

Ishqi yo'q odammisoli modagov,

Fikri yodi yeb-ichar obu alov.

Ishqi yo'q odamni vasfin aytaman,

Aytib-aytib bu jahondin qaytaman...

Izoh: Ishqi yo'q xuddi sigirga o'xshaydi, o'y-hayoli faqat ovqatlanishda bo'ladi. Ishqi yo'q odam haqida aytaman va aytib-aytib hayotni tark etaman. Shoira bu o'rinda

Shoira bu bilan: "Ishqi yo'q- eshshak , dardi yo'q- kesak", -degan fikr bildirgan. Shuni aytib o'tish joizki, bunday misralarni keltirish uchun o'z davrining fozilasi, komilasi, aqli raso qizi bo'lishi lozim. O'z davrining mashhur shoirasi bo'lib chiqqan Samar bonu hayot yo'li oson kechmagan. Musulmon davlatlari urf-odatlariga xos ravishda uni ham otasi majburlab turmushga uzatmoqchi bo'ladi. Lekin shoira bunga rozi bo'lmadi, o'z taqdiriga ko'nmasdan sevgisi uchun kurashdi. Otasi tagli-tugli yigitga uzatmoqchi bo'lganida: "Men o'zga bir Majnunning Laylisiman", -deb turib oladi. Lekin Sirojiy qizini oddiy bir buyumdek o'z gaga hadya etmoqchi bo'lganida to'yi kuni qochib ketadi. O'z tanlagan yori shoir Sirojiyning mingtepalik (hozirgi Marhamat tumani) Sharifjon ismli shogirdi bo'lib, to'yi kuni qochib yorining huzuriga boradi. Qizining bu jasoratini behayolik deb hisoblagan ota oq qiladi, merosidan mahrum etadi, butun oila undan yuz o'giradi. Oradan o'n oy o'tar-o'tmas, otasi topgan boyvachcha kuyov o'ch olish maqsadida odam yollab Sharifjonni o'ldirtiradi. Bonu o'n

to'qqiz yoshida qo'lidagi chaqalog'i Zahriddin bilan beva bo'lib qoladi. Shundan bo'lsa kerak, shoironing ko'pgina she'rlarida bosh mavzu hijron azobidir. Samar Bonu ham Nodira kabi yorini sog'inib she'rlar bitgan va butun umr yoriga sodiq bo'lib qolgandir. Buni quyidagi she'ridan ham bilib olishimiz mumkin:

Men g'arib, Bonu g'arib, o'tim g'arib, zotim g'arib,
 Bu g'ariblikda yurubman kahrabodek sarg'arib.
 Sarg'ayib bir soddadil bechoraman, holim xarob,
 Pur jafo-u, pur alam, g'amgin erurman muztarib.
 Muztarib ahvol mo'g'ug'dur meni yalg'uz boshim,
 Men giriftori qafasmen munisimdur andalib.
 Andalibdek termulibmen zor-u nolon men yana,
 Termulon ojizlarga bo'lg'an farosatli qarib.
 Qarib yetkay befarosat to saodatlig' kunin,
 Topmag'aymen sar batanho, po batanho axtarib.
 Axtaray to o'lguncha bir ichkuyar dilxohlik,
 To'ldi bag'rim, ezdi ko'ksim, kimga aytay qichqirib.
 Qichqirib ko'nglum yozolmay termulurman har sari,
 Yo'qki bir amma-xola, yo biro pa kelsa kirib.
 Kiribon kelsa eshikdin goh nogoh bir jigar:
 Ko'ksim ochib ko'rsatardim ham taqi bag'rim yorib.
 Yoribon bo'lmas tufayli, dard bo'lg'ondur dilim,
 Koshki oqsa g'ariblikda yurak-bag'rim erib.
 Erib oqti Bonu yo, ikki ko'zungdin daryolar,

Yo'q bo'lursan bora-bora rangu ro'y ham tan sizib.

Eng zo'r ta'sirli baytlarini olib, ayni bir bayt tagida izoh, yana bayt yana izoh

She'riyat orqali faqat shaxsiy muammolar yoritilmaydi, balki hamisha keng ijtimoiy mazmun kasb etib, biror ijtimoiy tabaqaning kayfiyati, ruhiy holati, orzu-umidlari aks etgan oyna bo'lib qoladi. Bonuning she'riyatida ham o'sha davr xotin-qizlarining faryodi aks etgan deb qarash zarur. Ya'ni o'sha davr jamiyatidan, diniy xurofotlardan, eski bid'atlardan birgina Samar Bonu jabrlanmagan, balki o'nlab, yuzlab Samar Bonular taqdiri shunday kechgandir. Biroq, bu ijtimoiy adolatsizlik, bu jinsiy tahqirlar uni ijodga bo'lgan ishtiyoqini sindira olmadi. Shoira nafis she'rlaridan birida hayot mashaqqatlari qanchalik og'ir bo'lsa ham o'z yo'lining to'g'riligini va bu yo'ldan qaytmasligini aytib shunday xitob qiladi:

Yonmag'il, Bonu kirgan yo'lingdin
 Oldingni to'ssa sheri dag'olar?... izoh

Bu misralardan ham bilishimiz mumkinki, Samar bonu tanlagan yo'ldan qaytmagan, doim ijod bilan shug'ullangan, yosh qizlarga ta'lim berishni va ularni bilimli qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan fidoyilardandir. Shoira hayot qozonida qanchalik ko'p qaynamasin, yashashda davom etishga o'zida kuch topa olgan kuchli ayol siymosini o'zida gavdalantiradi. Bu kabi ayollar barcha zamonlardagi xotin-qizlar uchun o'rnak bo'la oladi deb ayta olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. To'xtasin Jalolov "Samar Bonu" risolasi
2. Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostoni